

TOPONIMNING USLUBIY POTENSIALI: KOMPENSATOR IZOMORFIZM VA TIL SATHLARINING O'ZARO TA'SIRI

Nasritdinov Ulug'bek O'lmas o'g'li

Samarqand davlat chet tillar instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21503194>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida toponimlarning uslubiy potentsiali qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda toponimlarning uslubiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi semantik, grammatik va madaniy omillar yoritilib, ularning turli til sathlarida namoyon bo'lish xususiyatlari "kompensator izomorfizm" tamoyili asosida izohlanadi. Shuningdek, mazkur tamoyilning chog'ishtirma tilshunoslik, uslubshunoslik va tarjimashunoslikdagi nazariy hamda amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: toponim, uslubiy potentsial, kompensator izomorfizm, semantik shaffoflik, grammatik resurs, madaniy konnotatsiya, artikl, affiks, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik.

Abstract: This article presents a comparative analysis of the stylistic potential of toponyms in English and Uzbek. It examines the semantic, grammatical, and cultural sources that shape the stylistic value of place names and explains their distribution across different linguistic levels through the principle of compensatory isomorphism. The study also highlights the theoretical and practical significance of this principle for contrastive linguistics, stylistics, and translation studies.

Keywords: toponym, stylistic potential, compensatory isomorphism, semantic transparency, grammatical resources, cultural connotation, article system, affixation, contrastive linguistics, translation studies.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ стилистического потенциала топонимов на материале английского и узбекского языков. Рассматриваются семантические, грамматические и культурные источники формирования стилистической выразительности топонимов, а также особенности их реализации на различных языковых уровнях на основе принципа компенсаторного изоморфизма. Обосновывается теоретическое и практическое значение данного принципа для сопоставительного языкознания, стилистики и переводоведения.

Ключевые слова: топоним, стилистический потенциал, компенсаторный изоморфизм, семантическая прозрачность, грамматические ресурсы, культурная коннотация, артикль, аффиксация, сопоставительное языкознание, переводоведение.

Toponimning uslubiy salohiyati, uning matnda qo'shimcha ma'no yaratish qobiliyati, turli tillarda turlicha lisoniy vositalar orqali amalga oshadi. Genealogik jihatdan uzoq bo'lgan ingliz va o'zbek tillarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, bir tilda mavjud bo'lmagan uslubiy resurs boshqa tilda alohida grammatik yoki leksik vosita orqali qoplanishi mumkin. Ushbu kompensatsion mexanizmni tizimli tarzda tavsiflash mazkur maqolaning asosiy predmetini tashkil etadi.

Ushbu masalaning ilmiy ahamiyati ikki jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u chog'ishtirma tilshunoslikning umumnazariy muammosiga, struktur farqlarning funksional teng qiymatlilikka to'sqinlik qilib-qilmasligiga, toponimik material asosida konkret javob beradi. Ikkinchidan, u tarjimashunoslik uchun amaliy ahamiyatga ega: agar tarjimon manba

tildagi uslubiy samaraning qaysi sath orqali yaratilganini aniq bilsa, u maqsad tilda funksional muqobil vositani izchil tarzda topa oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi toponimning uslubiy potensialini tashkil etuvchi manbalarni aniqlash hamda ingliz va o'zbek tillarida bu manbalarning til sathlari bo'yicha turlicha taqsimlanishini "kompensator izomorfizm" tushunchasi asosida asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari: uslubiy bo'yoqdorlikning uch manbasini, semantik shaffoflik, grammatik resurs va madaniy konnotatsiyani, aniqlash; ingliz tilida artikl tizimining denotativ va uslubiy vazifasini yoritish; o'zbek tilida affiksial tizimning muqobil uslubiy vazifasini ko'rsatish; ikki tildagi uslubiy resurslarning umumiy hajmini qiyoslash; nihoyat, kompensator izomorfizm tushunchasini toponimik izomorfizmning uch darajali modeliga integratsiya qilish.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ingliz va o'zbek toponimlarining grammatik qo'llanish namunalari, artikl distributsiyasi, affiksial birikuvchanlik, badiiy va publitsistik matnlardagi uslubiy qo'llanishlar, to'plandi. Ikkinchi bosqichda har bir namunada faollashgan uslubiy manba (semantik, grammatik yoki madaniy) aniqlandi va til sathi bo'yicha kodlandi. Uchinchi bosqichda ikki tildagi natijalar sifat jihatidan qiyoslandi hamda kompensator taqsimot modeli shakllantirildi. Miqdoriy ko'rsatkichlar sxematik-illyustrativ xarakterga ega, chunki uslubiy resurslarning aniq statistik o'lchovi keng ko'lamli matn korpusini talab qiladi.

Ingliz grammatikasida artikl tizimining semantik-denotativ vazifasi Kuirk va boshqalar tomonidan batafsil tavsiflangan [1], Xadlston va Pullum esa uni zamonaviy grammatik nazariya asosida yangilagan [2]. Tarixiy-grammatik nuqtayi nazardan artikl tizimining shakllanishi Espersen tomonidan yoritilgan [3]. Ingliz va turkiy tillarning qiyosiy tipologiyasi Buranov tomonidan tizimli tarzda tadqiq etilgan [4], kontrastiv grammatika metodologiyasi esa Yartseva tomonidan ishlab chiqilgan [5]. Kouts atoqli otlikni referensiya usuli sifatida talqin qilib, grammatik shakl atoqli ot maqomini belgilamasligini asoslagan [6].

O'zbek grammatikasida affiksial tizim, kelishik, egalik va ko'plik ko'rsatkichlari, G'ulomov va Asqarova tomonidan [7], "O'zbek tili grammatikasi" akademik nashrida esa tizimli tarzda tavsiflangan [8]. Raxmatullayev o'zbek tilining etimologik-morfologik xususiyatlarini yoritgan [9]. Shunga qaramay, ikki tildagi uslubiy resurslarning til sathlari bo'yicha taqsimotini "kompensatsiya" tushunchasi asosida yagona modelga birlashtiruvchi hamda buni toponimik material asosida asoslovchi maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Aynan shu metodologik bo'shliq mazkur maqolaning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Toponimning uslubiy bo'yoqdorligi uch mustaqil manbadan oziqlanishi mumkin: semantik shaffoflik (toponimning ichki shakli, motivatsion semasi), grammatik resurs (toponimning morfo-sintaktik moslashuvchanligi, me'yordan chetga chiqish imkoniyati) hamda madaniy konnotatsiya (toponimning jamoaviy xotira va assotsiativ maydon bilan bog'liqligi). Ushbu uch manba barcha tillarda mavjud bo'lsa-da, ularning nisbiy faolligi til tizimidan tilga sezilarli farq qiladi.

Kompensator izomorfizm tushunchasi quyidagi kuzatuvni umumlashtiradi: agar til bir manbadan mahrum bo'lsa, uning uslubiy vazifasini boshqa manba zimmasiga oladi. Natijada ikki tilning umumiy uslubiy potentsiali taxminan teng saqlanadi, biroq uning sathlar bo'yicha taqsimoti tubdan farqlanadi. Bu tamoyil toponimik izomorfizmning uch darajali modeliga, kognitiv-universal to'liq izomorfizm, struktur-tipologik qisman izomorfizm, etnomadaniy ustun allomorfizm, yangi, to'rtinchi qirrani qo'shadi: struktur sathdagi allomorfizm uslubiy

sathda to'liq allomorfizmga aylanmaydi, chunki tillar bir sathdagi yo'qotishni boshqa sathda qoplaydi.

Ingliz tilida artikl qo'llanishiga ko'ra toponimlarni uch grammatik sinfga ajratish mumkin. Birinchi sinf, nol artikl bilan qo'llanuvchi, chegaralangan va nuqtaviy obyektlar nomlari. Ikkinchi sinf, aniq artiklni majburiy talab qiluvchi obyektlar nomlari: daryo, dengiz, okean, tog' tizmasi, cho'l, orollar guruhi. Uchinchi sinf, tebranuvchi qo'llanishga ega birliklar, ular tarixiy sabablar bilan izohlanadi [1; 2].

Ushbu taqsimotning ichki mantiqi bor: aniq artikl, asosan, cheklanmagan, uzunlik yoki maydon bo'yicha cho'zilgan hamda ko'plik semasi bilan bog'liq obyektlarni belgilaydi, nol artikl esa nuqtaviy, chegaralangan obyektlarga xos. Demak, artikl ingliz tilida toponimning denotativ sinfini bilvosita kodlaydi va u grammatik ko'rsatkich sifatida semantik axborot tashiydi. Bu kuzatuv alohida ahamiyatga ega, chunki ingliz toponimlarining motivatsion shaffofligi past: Bakewell nomidan uning suv obyekti bilan bog'liqligi anglashilmaydi, biroq the Thames shaklidagi aniq artikl tinglovchiga denotativ sinf haqida axborot beradi. Demak, leksik sathda yo'qolgan axborotning bir qismi grammatik sath orqali qayta tiklanadi, bu lisoniy tizimning kompensator xususiyatining yaqqol namunasidir.

Artiklning uslubiy resurs sifatidagi ishlashi ayniqsa qiziqarli. Aniqllovchi bilan birikkan aniq artikl toponimni vaqt yoki nuqtai nazar bo'yicha cheklaydi: the London of my youth, the England of Shakespeare qoliplarida toponim yagona emas, ko'plab mumkin bo'lgan "Londonlar"dan biriga aylanadi va bu nostalgik yoki tarixiy perspektiva uyg'otadi. Xuddi shunday, noaniq artikl toponimni vaqtincha turdosh ot maqomiga o'tkazadi: a second Waterloo qolipida toponim o'z yagona referentligini yo'qotib, umumlashgan tip vazifasini bajaradi. Bunday qoliplar deonimizatsiyaning grammatik ko'rsatkichlari hisoblanadi va ular kuchli uslubiy samara yaratadi [6].

O'zbek tilida ingliz artikl tizimiga o'xshash grammatik kategoriya mavjud emas. Barcha toponimlar bir xil morfologik shakl namoyish etadi, denotativ sinf esa faqat leksik sathda, generik komponent orqali ifodalanadi *Amudaryo*, *Aydarko'l*, *Chotqol tog'lari*. Demak, ingliz tilida denotativ axborot grammatik, o'zbek tilida esa leksik vosita bilan kodlanadi. Bu farq kompensator izomorfizmning eng aniq grammatik dalili hisoblanadi: ikki tilda bir xil semantik axborot uzatiladi, ammo uning kodlash sathi turlicha. Ingliz tili leksik shaffoflikni yo'qotgani uchun grammatik kodlashga tayanadi, o'zbek tili esa leksik shaffoflikni saqlagani bois grammatik kodlashga ehtiyoj sezmaydi.

O'zbek tilida artikl kategoriyasi o'rnini kelishik, egalik va ko'plik affikslari bilan munosabat egallaydi. Egalik affiksi, xususan, ingliz artiklining uslubiy o'yiniga funksional jihatdan yaqin natija beradi: *mening Toshkentim*, *Navoiy zamonidagi Hirot* qoliplarida toponim shaxsiy yoki tarixiy nuqtai nazar bilan cheklanadi, xuddi *the London of my youth* qolipidagi kabi. Funksional jihatdan bu shakllar ingliz tilidagi artikl bilan o'ynash imkoniyatiga to'liq muvofiq keladi, ammo grammatik vositasi butunlay boshqacha, egalik affiksi ingliz tilidagi aniq artiklning vazifasini o'z zimmasiga oladi [7; 8].

Uslubiy bo'yoqdorlikning yana bir manbai, toponimning tovush qiyofasi, chog'ishtirma tadqiqotlarda odatda e'tibordan chetda qoladi, holbuki u she'riy va publitsistik matnda muhim vazifa bajaradi. Toponimning bo'g'in tuzilishi, urg'u o'rni va tovushlar uyg'unligi she'riy matnda ritmik-ohangdosh vosita sifatida faollashadi. Bu manba ikki tilda ham mavjud, biroq uning faollashuv darajasi janr va uslubga bog'liq: u nasrda deyarli sezilmaydi, she'riyatda esa alohida

ahamiyat kasb etadi. Fonik manbaning ikki tilda taqsimoti alohida, mustaqil tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin, biroq uning mavjudligini e'tirof etish uslubiy bo'yoqdorlik manbalarining to'liq ro'yxatini shakllantirish uchun zarur.

Uslubiy resurslardan tashqari, ikki til toponimning grammatik moslashuvchanligi bo'yicha ham farqlanadi. Grammatik moslashuvchanlik deganda toponimning morfologik shakl olish va turli sintaktik mavqelarda qo'llanish qobiliyati tushuniladi. O'zbek tilida bu ko'rsatkich yuqori: toponim kelishik, egalik va ko'plik affiksalarini erkin qabul qiladi, undan muntazam katoynonim yasaladi. Ingliz tilida esa moslashuvchanlik nisbatan past: artikl tizimi qat'iy me'yorlarga bo'ysunadi, katoynonim yasalishi tartibsiz, egalik esa analitik yo'l (of- birikmasi yoki apostrof-s) bilan ifodalanadi.

Diqqatga sazovor jihat shundaki, grammatik moslashuvchanlik va uslubiy potensial teskari yo'nalishda taqsimlangan: o'zbek tili yuqori moslashuvchanlikka, ammo kamroq grammatik uslubiy resursga ega. Ingliz tili esa past moslashuvchanlikka, ammo undan chetga chiqish orqali kuchli uslubiy samara yaratish imkoniyatiga ega. Bu kuzatuv shuni ko'rsatadiki, uslubiy samara ko'pincha aynan me'yordan chetga chiqishdan kelib chiqadi, shu bois qat'iyroq grammatik tizim, paradoksalar tarzda, kuchliroq uslubiy "siljish" imkoniyatini yaratadi.

Chog'ishtirma tahlil natijasida toponimik izomorfizm uch darajali tuzilishga ega ekani aniqlangan: kognitiv-universal darajada to'liq izomorfizm, struktur-tipologik darajada qisman izomorfizm, etnomadaniy darajada esa ustun allomorfizm. Kompensator izomorfizm tushunchasi ushbu modelga muhim aniqlik kiritadi: struktur-tipologik darajadagi allomorfizm uslubiy sathda to'liq allomorfizmga aylanmaydi. Tillar bir sathdagi yo'qotishni boshqa sathda qoplaydi, shu bois uslubiy potensial darajasida ikki tizim yana izomorf holatga qaytadi.

Bu xulosa nazariy jihatdan muhim, chunki u struktur farqlarni funksional teng qiymatlilik nuqtayi nazaridan qayta baholash imkonini beradi. Til A da mavjud bo'lmagan grammatik kategoriya til B dagi funksional ekvivalentga ega bo'lishi mumkin, garchi ular struktur jihatdan hech qanday o'xshashlikka ega bo'lmasa ham. Bu tamoyil, mohiyatan, chog'ishtirma tilshunoslikning tertium comparationis tamoyilini uslubiy sath uchun ham tasdiqlaydi: qiyoslash asosi struktur shakl emas, bajarilayotgan funksiya bo'lishi kerak.

Kompensator izomorfizm tamoyilini mutlaqlashtirmaslik lozim: u umumiy tendentsiyani tavsiflaydi, biroq har bir konkret holatda to'liq funksional ekvivalentlik kafolatlanmaydi. Masalan, ingliz tilidagi "the London of my youth" qolipida artikl va aniqlovchi birgalikda ishtirok etib, bir vaqtning o'zida ham cheklash (aynan shu davrdagi London), ham nostalgik uslubiy bo'yoq yaratadi. O'zbek tilidagi "mening Toshkentim" qolipi cheklash funksiyasini bajaradi, biroq uning nostalgik bo'yog'i kontekstga ko'proq bog'liq, egalik affiksining o'zi bunday bo'yoqni avtomatik yaratmaydi, uni ko'pincha qo'shimcha leksik vositalar masalan, sifatlovchilar yoki zamon qo'shimchalari kerak. Demak, kompensatsiya to'liq emas, qisman xarakterga ega, va bu qisman xarakter chog'ishtirma uslubshunoslik uchun alohida e'tibor talab qiladigan nozik farqlarni yaratadi.

Bunday nozik farqlarni hisobga olish, ayniqsa, badiiy tarjimada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bir grammatik vositaning bir nechta funksiyani bir vaqtda bajarishi maqsad tilda ikkita alohida vosita orqaligina to'liq qayta tiklanishi mumkin. Bu holat tarjimonning ijodiy qarorlar qabul qilishini talab qiladi va u sof lingvistik ekvivalentlik doirasidan tashqariga chiqadi.

Kompensator izomorfizm tushunchasi tarjimashunoslik uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega. Manba matndagi toponimning uslubiy samarasi grammatik vosita orqali erishilgan bo'lsa, tarjimon uni maqsad tilda xuddi shu grammatik vosita bilan emas, balki funksional ekvivalent, masalan, o'zbek tilida tavsiflovchi birikma yoki egalik qolipi, orqali qayta yaratishi lozim. So'zma-so'z tarjima, bunday hollarda, uslubiy samarani to'liq yo'qotadi, chunki maqsad tilda bir xil grammatik vosita mavjud emas.

Demak, tarjimon uchun muhim bo'lgan narsa struktur ekvivalentlik emas, balki funksional-uslubiy ekvivalentlik: qaysi til sathi orqali bo'lmasin, manba matndagi uslubiy samara maqsad tilda muqobil vosita bilan qayta tiklanishi kerak. Kompensator izomorfizm nazariyasi aynan shu izlanish yo'nalishini ko'rsatib beradi, u tarjimonni struktur mosliksizlikdan qo'rqmaslikka, balki funksional muqobil qidirishga undaydi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, toponimning uslubiy potentsiali semantik shaffoflik, grammatik resurs va madaniy konnotatsiya bo'lmish uch manbadan oziqlanadi hamda bu manbalarning nisbiy faolligi ingliz va o'zbek tillarida tubdan farq qiladi: ingliz tilida grammatik (artikl) va madaniy sathlar, o'zbek tilida esa leksik-semantik va madaniy sathlar yetakchilik qiladi. Ikki tilning umumiy uslubiy potentsiali taxminan teng saqlanadi, bu hodisa kompensator izomorfizm deb yuritildi.

Kompensator izomorfizm tamoyili toponimik izomorfizmning uch darajali modeliga yangi, to'rtinchi aniqlik kiritadi: struktur-tipologik sathdagi allomorfizm uslubiy sathda qoplanadi va tillar yana izomorf holatga qaytadi. Bu xulosa chog'ishtirma uslubshunoslik uchun muhim metodologik tamoyilni, qiyoslash asosi struktur shakl emas, funktsiya ekanini, tasdiqlaydi hamda tarjimashunoslikda funksional-uslubiy ekvivalentlikka erishish strategiyasini asoslaydi. Taklif etilgan model chog'ishtirma uslubshunoslik, kontrastiv grammatika va tarjimashunoslik sohalarida keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – London – New York: Longman, 1985. – 1779 p.
2. Huddleston R., Pullum G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 1842 p.
3. Jespersen O. A Modern English Grammar on Historical Principles. Part VII: Syntax. – London: George Allen & Unwin, 1949. – 512 p.
4. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высшая школа, 1983. – 267 с.
5. Ярцева В.Н. Контрастивная грамматика. – М.: Наука, 1981. – 111 с.
6. Coates R. A New Theory of Properhood // Names. – 2006. – Vol. 54, №. 4. – P. 356-366.
7. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 256 б.
8. Ўзбек тили грамматикаси: 2 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1975-1976. (1-жилд – 609 б.; 2-жилд – 560 б.)
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
10. Ekwall E. The Concise Oxford Dictionary of English Place-Names. – 4th ed. – Oxford: Clarendon Press, 1960. – 546 p.